QARAQALPAQSTAN RESPUBLIKASÍ QOŃÍRAT RAYONÍ HÁKIMINIŃ SHESHIMI

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI QO‘NG‘IROT TUMANI HOKIMINING QARORI

2023 - yil 29 - noyabr 301-13-185-Q/23 Qo‘ng‘irot tumani hokimligi

Qo‘ng‘irot tumani mahalliy byudjet daromadlarining qo‘shimcha manbalari mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 25-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi “Byudjet kodeksi”ga muvofiq:

1. Quyidagilar:

-O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 7-may kungi 343-sonli qaroriga asosan «Havfsiz shahar» loyihasini amalga oshirish bo‘yicha yagona texnologik yondoshuvlarni tashkil qilish xarajatlariga 18425806 (o‘n sakkiz million to‘rt yuz yigirma besh ming sakkiz yuz olti) so‘m miqdorida mablag‘ zarurligi;

-tarmoq xurujlaridan himoya qiluvchi vositalari orqali internet tarmog‘iga ulash xizmatlarini ko‘rsatish (ishlarni bajarish)ga oid xarajatlarga 11578000 (o‘n bir million besh yuz yetmish sakkiz ming) so‘m mablag‘ zarurligi;

-veb-sayt va mobil ilovalarini o‘rnatish xarajatlariga 2925000 (ikki million to‘qqiz yuz yigirma besh ming) so‘m mablag‘ zarurligi;

-tuman hokimligi moddiy-texnik bazasini mustahkamlash xarajatlariga 25000000 (yigirma besh million) so‘m mablag‘ zarurligi;

-tuman hokimligiga kanctovarlar sotib olish xarajatlariga 5000000 (besh million) so‘m mablag‘ zarurligi;

- ushbu maqsadlarda zarurligi aniqlangan jami 62928806 (oltmish ikki million to‘qqiz yuz yigirma sakkiz ming sakkiz yuz olti) so‘m miqdoridagi mablag‘larni Qo‘ng‘irot tumani mahalliy byudjet daromadlarining qo‘shimcha manbalari mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish maqsadga muvofiqligi to‘g‘risidagi tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Kurbanovning taklifi ma’qullansin.

2. Qo‘ng‘irot tumani iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Sayipnazarov), tuman g‘aznachilik bo‘linmasi (F.Djumaniyazov) bilan birgalikda Qo‘ng‘irot tumani mahalliy byudjet daromadlarining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘lar

ajratilishini, Qo‘ng‘irot tumani hokimligi bosh hisobchisi (S.Kaldibayev) ajratilgan mablag‘ni maqsadli sarflanishini nazoratga olish topshirilsin.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Sayipnazarov), Qo‘ng‘irot tumani hokimligi bosh hisobchisi (S.Kaldibayev) bilan birgalikda yuqorida ko‘rsatilgan maqsadlar uchun zarur mablag‘larni Qo‘ng‘irot tumani mahalliy byudjet daromadlarining qo‘shimcha manbalari mablag‘lari hisobidan tegishli tartibda tuzilgan shartnomalar asosida o‘tkazib berilishini ta’minlasin. Bunda yetkazib beruvchilar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomada nazarda tutilgan tovar (ish, xizmat)lar narxlarining to‘g‘ri shakllanishiga tuman hokimligining bosh hisobchisi (S.Kaldibayev) shaxsan javobgar ekanligi belgilab qo‘yilsin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari B.Kurbanovga yuklansin.

Tuman hokimi **B.Madaminov**